XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

141408, Kattaqo‘rg‘on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2021 - yil 21 - oktabr VI-42-69-7-96-K/21 Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘chalarni nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 24-iyundagi 03-08/1463-sonli xati, tuman Adliya bo‘limining 2021-yil 11-oktabrdagi normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazishi yuzasidan xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq XLII sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimi maslahatchisi N.Buronovaning “Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘chalarni nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida” gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘cha nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Pulatov), tuman Madaniyat bo‘limi (A.Xoliqov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (I.Nurmurodov), tuman “Yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (B.Eronov)ga:

-bir oy muddatda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘cha nomlari ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarni qaytadan o‘rnatish;

-olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. “Kattaqo‘rg‘on haqiqati” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov) ushbu qarorning o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jalik hamda aholiga xizmatlar ko‘rsatish komissiyasi rahbari J.Jumayev, tuman hokimining o‘rinbosari L.Raxmonov va mutasaddi tashkilotlar zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **J.Nasriddinov**

Халқ депутатлари Каттақўрғон
туман кенгашининг
2021 йил 21 октябрдаги
VI-42-69-7-96-K/21-сон қарорига
1-илова

Tuman hokimi maslahatchisi N.Buronovaning tumandagi ko‘chalar va mahalla fuqarolar yig‘inlarining ayrimlarini nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tavsiya etilgan takliflarni ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi HISOBOTI

Assalomu alaykum!
Hurmatli deputatlar!
Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-matrdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli Qaroriga asosan tumandagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan tumandagi mavjud geografik obyektlar xatlovdan o‘tkazildi hamda shakllantirilgan ma’lumotlar geografik obyektlarning nomlari davlat reestri bazasidagi mavjud nomlar bilan taqqoslab chiqildi.

Natijada tumandagi 451 ta ko‘cha hamda 5 ta mahalla fuqarolar yig‘ini bugungi kunda nomsiz va turli nomlar bilan atalib kelinayotganligi hamda geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri bazasiga kiritilmaganligi aniqlandi.

Tumandagi 451 ta ko‘cha hamda 5 ta mahalla fuqarolar yig‘ini nomlash va qayta nomlash O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq nomlash va qayta nomlash maqsadida “Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi” tomonidan taklif etilayotgan nomlarni davlat ekspertizasidan o‘tkazilganligini ma’lum qilaman.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi Qaroriga asosan ekspertizadan o‘tkazilib va qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan takliflar xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida tasdiqlash uchun taqdim etilmoqda.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Tuman hokimi maslahatchisi **N.Buronova**

“Tasdiqlayman”

Hududiy adliya organi rahbari

Xakimov U. A.

Kattaqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan

XULOSA

2021 yil **Kattaqo’rg’on tumani**

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining “Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘chalarini, nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quydagilardan

ANIQLANDI:

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining “Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘chalarini, nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma, (ro‘yxat raqami 2420, 2013-yil 1-fevral), O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktyabrdagi O‘RQ-303-sonli "Geografik ob'ektlarning nomlari to‘g‘risida"gi Qonuni xamda boshqa qonun hujjatlariga zid emas.

Yuqoridagilarga ko‘ra, taqdim etilgan qaror loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

XULOSA QILAMAN:

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani kengashining "Tumandagi mavjud ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlari, ko‘chalarini, nomlash va qayta nomlashning qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida”gi qaror qaror loyihasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiqligi qayd etilsin.